

**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BIOLOGIYA FANINI O`QITISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH****Ravshanov Ma`rufjon Baxtiyor og`li****Navoiy davlat universiteti akademik litseyi biologiya fani bosh o`qituvchisi**

ravshanovmb11@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanini o`qitishda kreativ yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo`llash, tabiiy fanlarda dars jarayonini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida kreativ va kontekstual usul texnologiyalarining o`quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi o`rni va ularni dars jarayonida qo`llash tahlil qilingan. Maqolada nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog`lash orqali dars samaradorligini oshirishning amaliy usullari va metodik tavsiyalar keltirilgan.

Annotation: This article highlights creative approaches and innovative technologies in teaching biology, as well as issues related to improving the teaching process in natural sciences. During the research, the role of creative and contextual method technologies in developing students' critical thinking skills and their application in the classroom process were analyzed. The article presents practical methods and methodological recommendations for enhancing lesson effectiveness by connecting theoretical knowledge with real-life situations.

Аннотация: В данной статье освещены творческие подходы и инновационные технологии в преподавании биологии, а также вопросы совершенствования учебного процесса по естественным наукам. В ходе исследования был проведён анализ роли технологий творческого и контекстуального метода в развитии критического мышления учащихся и их применения в учебном процессе. В статье представлены практические методы и методические рекомендации по повышению эффективности урока посредством связи теоретических знаний с жизненными ситуациями.

Kalit so`zlar: kreativ metodlar, kontekstual o`qitish loyiha asosida o`qitish, ijodiy fikrlash, biologik ta`lim, biologik keys.

Keywords: creative methods, contextual teaching, project-based learning, creative thinking, biological education, biological case study.




Ключевые слова: креативные методы, контекстное обучение, проектное обучение, творческое мышление, биологическое образование, биологический кейс.

Biologiya — tirik tizimlarning tuzilishi, funksiyasi va rivojlanishini o'rganadigan fan bo'lib, unda ko'plab jarayonlar ko'z bilan bevosita kuzatilmaydi yoki uzoq vaqt davomida sodir bo'ladi. Shu sababli biologiyani samarali o'qitish uchun an'anaviy metodlar yetarli darajada samara bermaydi. Kreativ yondashuv o'quvchilarda chuqur tushuncha, tizimli tafakkur va ilmiy izlanish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu usullar yordamida o'quvchilarda biologik jarayonlarni yetarli darajada tushuntirish va mustahkamlash mumkin.

Biologiya fanidan qo'llanadigan nazariy tushunchalarni dars jarayonida turli vositalar yordamida modellashtirib, o'quvchi dars jarayonida tasavvurini oshirish mumkin bo'ladi. Ushbu maqolada biologiya darslarini kontekstual o'qitish metodikasi orqali olib borishning yutuqlari haqida ma'lumotlar keltirdim.

Kontekstual o'qitish — bu biologik bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan integratsiya qilishga asoslangan didaktik yondashuv bo'lib, u o'quvchining bilimni faqat eslab qolishi emas, balki uni tushunishi, qo'llashi va tahlil qilishini ta'minlaydi. Ayniqsa biologiyada bu yondashuv juda muhim bo'lib, tirik organizmlarda sodir bo'ladigan jarayonlar insonning kundalik hayoti bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Kontekstual o'qitishning mohiyatini quyidagi 3 ta bosqichga ajratishimiz mumkin:



1. Biologik tushuncha: metabolism — organizmda moddalar almashinuv jarayonini. Organizmda sodir bo'ladigan barcha sintez va parchalanish jarayonlari yig'indisi bo'lib, unda hayot faoliyati uchun zarur moddalar qabul qilib sintezlanadi. So'ngra organism uchun yot qoldik moddalar hosil bo'lib, ular tashqi muhitga ajratiladi.



2. Hayotiy vaziyat: noto'g'ri ovqatlanish – ovqatlanish rejimini buzilishi, tartibsiz ovqatlanish organizmda sodir bo'ladigan metabolism jarayonini buzilishiga sabab bo'ladi. Natijada semizlik, energiya yetishmovchiligi va boshqa salbiy oqibatlariga olib keladi. Noto'g'ri ovqatlanish qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, anemiya va boshqa kasalliklarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

3. Amaliy xulosa: muvozanatli tartibli ovqatlanish. Ovqatlanish rejim qoidasi orqali me'yorda va bir xil tartibda kunlik iste'mol qilingan mahsulotlarni organism qabul qilishi yengillashadi. Turli kasalliklar xavfi kamayadi.

Quyidagi kontekstual usul yordamida foydalanish mumkin bo'lgan turli biologiya mavzulariga misollar keltirilgan.



Kreativ yondashuv asosida kontekstual o'qitish o'quvchi passiv tinglovchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida dars jarayonida qatnashadi. U muammolarni tahlil qiladi, yechim izlaydi va o'z fikrlarini asoslaydi. Bu esa tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga zamin yaratadi. [3,4]

Ushbu yondashuvning asosiy afzalliklari sifatida quyidagi izohlarni keltirishim mumkin: o'quvchilar o'rganilayotgan mavzuning nima uchun zarurligini tushunadi;



bilimlar uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanadi; o'quvchilarning fanga qiziqishi va motivatsiyasi oshadi; hamkorlikda ishlash va muloqot ko'nikmalari takomillashadi. Xulosa qilib aytganda, biologiya dars jarayonlarini o'rgatishda kreativ yondashuv asosida kontekstual o'qitish an'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda o'quvchini hayotga tayyorlaydi, bilimni amaliyot bilan uyg'unlashtiradi va zamonaviy ta'limning asosiy talablaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa biologiya kabi tabiiy fanlarni o'qitishda ushbu metoddan foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda ta'lim va fan sohasini rivojlantirish konsepsiyasi". — Toshkent, 2019.
3. Azizxo'jayev A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: O'zbekiston, 2003.
4. Hasanboyeva O., Umarova Z. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. — Toshkent: Fan, 2010.
5. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2013.
6. Yo'ldoshev J.G'. Zamonaviy dars: tahlil va talablar. — Toshkent: O'qituvchi, 2009.

Internet manbalari:

www.ziyonet.uz — O'zbekiston ta'lim portali.

www.pedagog.uz — Pedagogik texnologiyalar bo'yicha materiallar.